


MUHANDISLIK

& IQTISODIYOT

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

2026-YIL

IYUL/7-SON, II-QISM



Milliy nashrlar

OAK: <https://oak.uz/pages/4802>

05.00.00 – Texnika fanlari

08.00.00 – Iqtisodiyot fanlar



Google
Scholar

ISSN
INTERNATIONAL
STANDARD
SERIAL
NUMBER
INTERNATIONAL CENTRE

OpenAIRE



ISSN: 3060-463X

РЭУ.РФ
РОССИЙСКИЙ ЭКОНОМИЧЕСКИЙ УНИВЕРСИТЕТ
ИМЕНИ Г.В. ПЛЕХАНОВА
ФИЛИАЛ В г. ТАШКЕНТЕ



muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Elektron nashr, 2026-yil, iyul.

Bosh muharrir:

Zokirova Nodira Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, DSc, professor

Bosh muharrir o'rinbosari:

Shakarov Zafar G'afarovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori, PhD, dotsent

Tahrir hay'ati:

Abduraxmanov Kalendar Xodjayevich, O'z FA akademigi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Sharipov Kongratbay Avezimbetovich, texnika fanlari doktori, professor

Maxkamov Baxtiyor Shuxratovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shaumarov Said Sanatovich, texnika fanlari doktori, professor

Turayev Bahodir Xatamovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Nasimov Dilmurod Abdulloyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Allayeva Gulchexra Jalgasovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Arabov Nurali Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Maxmudov Odiljon Xolmirzayevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Xamrayeva Sayyora Nasimovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bobonazarova Jamila Xolmurodovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Irmatova Aziza Baxromovna, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Bo'taboyev Mahammadjon To'ychiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori, professor

Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxuja kizi, iqtisodiyot fanlari doktori, professor,

Xolmuxamedov Muhsinjon Murodullayevich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Xodjayeva Nodiraxon Abdurashidovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Amanov Otabek Amankulovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Qurbonov Samandar Pulatovich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Zikriyoyev Aziz Sadulloyevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tabayev Azamat Zaripbayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sxay Lana Aleksandrovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Ismoilova Gulnora Fayzullayevna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Djumaniyazov Umrbek Ilxamovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kasimova Nargiza Sabitdjanovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent

Kalanova Moxigul Baxritdinovna, dotsent

Ashurzoda Luiza Muxtarovna, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sharipov Sardor Begmaxmat o'g'li, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Tursunov Ulug'bek Sativoldiyevich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), dotsent

Bauyetdinov Majit Janizaqovich, Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti dotsenti, PhD

Botirov Bozorbek Musurmon o'g'li, Texnika fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Sultonov Shavkatjon Abdullayevich, Kimyo fanlari doktori, (DSc)

Jo'raeva Malohat Muhammadovna, filologiya fanlari doktori (DSc), professor.

Yusupov Maxamadamin Abduxamidovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor

Kalonova Moxigul Baxritdinovna, iqtisodiyot fanlari nomzodi (PhD), dotsent

Mirzayev Kulmamat Djanzakovich, iqtisodiyot fanlari nomzodi (DSc), professor.

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Norboyev Odil Abrayevich, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD), dotsent

Karimova Nilufar Sadirdin qizi, iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

Pardaev Umidjon Uralovich, iqtisodiyot fanlari doktori (DSc), professor

Xolmirzayev Ulug'bek Abdulazizovich, Iqtisodiyot fanlari doktori (DSc)

muhandislik & iqtisodiyot

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

- 05.01.00 – Axborot texnologiyalari, boshqaruv va kompyuter grafikasi
- 05.01.01 – Muhandislik geometriyasi va kompyuter grafikasi. Audio va video texnologiyalari
- 05.01.02 – Tizimli tahlil, boshqaruv va axborotni qayta ishlash
- 05.01.03 – Informatikaning nazariy asoslari
- 05.01.04 – Hisoblash mashinalari, majmualari va kompyuter tarmoqlarining matematik va dasturiy ta'minoti
- 05.01.05 – Axborotlarni himoyalash usullari va tizimlari. Axborot xavfsizligi
- 05.01.06 – Hisoblash texnikasi va boshqaruv tizimlarining elementlari va qurilmalari
- 05.01.07 – Matematik modellash
- 05.01.11 – Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt
- 05.02.00 – Mashinasozlik va mashinashunoslik
- 05.02.08 – Yer usti majmualari va uchish apparatlari
- 05.03.02 – Metrologiya va metrologiya ta'minoti
- 05.04.01 – Telekommunikatsiya va kompyuter tizimlari, telekommunikatsiya tarmoqlari va qurilmalari. Axborotlarni taqsimlash
- 05.05.03 – Yorug'lik texnikasi. Maxsus yoritish texnologiyasi
- 05.05.05 – Issiqlik texnikasining nazariy asoslari
- 05.05.06 – Qayta tiklanadigan energiya turlari asosidagi energiya qurilmalari
- 05.06.01 – To'qimachilik va yengil sanoat ishlab chiqarishlari materialshunosligi
- 05.08.03 – Temir yo'l transportini ishlatish
- 05.08.06 – "G'ildirakli va gusenisali mashinalar va ularni ishlatish" (texnika fanlari)
- 05.09.01 – Qurilish konstruksiyalari, bino va inshootlar
- 05.09.04 – Suv ta'minoti. Kanalizatsiya. Suv havzalarini muhofazalovchi qurilish tizimlari
- 10.00.06 – Qiyosiy adabiyotshunoslik, chog'ishtirma tilshunoslik va tarjimashunoslik
- 10.00.04 – Yevropa, Amerika va Avstraliya xalqlari tili va adabiyoti
- 08.00.01 – Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 – Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 – Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 – Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 – Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 – Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 – Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 – Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 – Jahon iqtisodiyoti
- 08.00.10 – Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 – Marketing
- 08.00.12 – Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 – Menejment
- 08.00.14 – Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 – Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 – Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 – Turizm va mehmonxona faoliyati

Ma'lumot uchun, OAK
Rayosatining 2024-yil 28-avgustdagi 360/5-son qarori bilan "Dissertatsiyalar asosiy ilmiy natijalarini chop etishga tavsiya etilgan milliy ilmiy nashrlar ro'yxati"ga texnika va iqtisodiyot fanlari bo'yicha "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali ro'yxatga kiritilgan.

Muassis: "Tadbirkor va ishbilarmon" MChJ

Hamkorlarimiz:

1. Toshkent shahridagi G.V.Plexanov nomidagi Rossiya iqtisodiyot universiteti
2. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti
3. Toshkent irrigatsiya va qishloq xo'jaligini mexanizatsiyalash muhandislari instituti" milliy tadqiqot universiteti
4. Islom Karimov nomidagi Toshkent davlat texnika universiteti
5. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi Toshkent axborot texnologiyalari universiteti
6. Toshkent davlat transport universiteti
7. Toshkent arxitektura-qurilish universiteti
8. Toshkent kimyo-texnologiya universiteti
9. Jizzax politexnika instituti



MUNDARIJA

OILAVIY KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING TASHKILY MEXANIZMINI TIZIMLI TAHLILI	10
Sultonov Bobirmirzo Mavlonjon o'g'li	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING	21
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
ВЛИЯНИЕ ПАРАМЕТРОВ ПРОЦЕССА ТЕКУЧЕСТИ НА СВОЙСТВА ГРАНУЛИРОВАННЫХ МАТЕРИАЛОВ НА ОСНОВЕ УГОЛЬНЫХ ОТХОДОВ В РАМКАХ ЦИРКУЛЯРНОЙ ЭКОНОМИКИ	28
Абдуганиев Азизбек, Кулдашева Азиза	
BUDJET TUSHUMLARINI OSHIRISHDA BOJXONA TO'LOVLARIGA TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI EKONOMETRIK BAHOLASH VA PROGNOZLASH	33
Fayzullayev Farrux Sharofovich	
O'ZBEKISTON KORXONALARIDA MOLYAVIY HISOBOTNING XALQARO STANDARTLARIGA (MHXS) O'TISHDA UCHRAYDIGAN ASOSIY MUAMMOLAR: SO'ROVNOMA NATIJALARI ASOSIDA TAHLIL	41
Safarova Gulbahor Nusratovna	
ТЕМИР YO'L TRANSPORTI INNOVATSION EKOTIZIMINI SHAKLLANTIRISH MODELI	45
Muradov Bahrom, Masharipov Ma'sud	
TIJORAT BANKLARIDA QARZ OLUVCHILARNING TO'LOVGA LAYOQATLILIGINI BAHOLASHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI	49
Soibov Jamshid Raxmatqulovovich	
O'ZBEKISTONDA CHEGARALARARO TURIZMNI RIVOJLANTIRISHDA BOJXONA XIZMATLARINI TAKOMILLASHTIRISH ISTIQBOLLARI	56
Ergashev Qobiljon Ernazarovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDITNING IQTISODIY MOHIYATI VA FUNKSIONAL EVOLYUTSIYASI: XALQARO STANDARTLARNING YANGI AVLADI ASOSIDAGI YONDASHUV	62
Narziyev Xayotjon Azamatovich	
MOLYAVIY INVESTITSİYALAR AUDITINI O'TKAZISH METODIKASINI VA AUDIT RISKLARINI BAHOLASHNI TAKOMILLASHTIRISH	69
Jumamurodov To'libay Yeldashbayevich	
MOLYAVIY HISOBOT IZOHLARIDA UZOQ MUDDATLI AKTIVLAR QADRSIZLANISHI YUZASIDAN OCHIB BERILADIGAN AXBOROTLAR TARKIBINI KENGAYTIRISH ORQALI HISOBOT SHAFFOFLIGINI OSHIRISH.	75
Fayzullayev Begzod Baxtiyor o'g'li	
XORIJIY MAMLAKATLAR TAJRIBASINI O'ZBEKISTON DAVLAT SEKTORI ICHKI AUDITIGA MOSLASHTIRISHNING KONSEPTUAL MODEL VA MUHIMLIK DARAJALARINI ME'YORIY-HUQUQIY BAZAGA JORIY ETISH	82
Ismatillayev Baypo'lat Xushvaqtovich	
O'ZBEKISTONDA TOVAR YETKAZIB BERISH ZANJIRI ISHTIROKCHILARI FAOLIYATI VA BOJXONA NAZORATI TIZIMINING ZAMONAVIY HOLATI TAHLILI	90
Ergashev Qobiljon, Kilichov Nazar	
DAVLAT XARIDLARI BO'YICHA ICHKI AUDITNING XATARGA YO'NALTIRILGAN METODOLOGIYASI	96
Rajabov Shuxrat Ismayilovich	
TIJORAT BANKLARIDA ICHKI AUDIT XIZMATI TUSHUNCHASINING IQTISODIY MAZMUNI VA UNI TAKOMILLASHTIRISH MASALALARI	101
Ismailov Azizbek Madaminovich	
YENGIL SANOAT KORXONALARIDA XATARGA YO'NALTIRILGAN ICHKI AUDIT METODIKASINI TAKOMILLASHTIRISH	109
Tojiyeva Shahlo Mahmatmurodovna	



IQTISODIY O'SISH OMILLARINI RIVOJLANISHIDA MOLIVAVIY XAVFLARNING TA'SIRI VA ULARNI KAMAYTIRISH IMKONIYATLARI	115
Turotova Nigora Xolmurod qizi	
QASHQADARYO VILOYATIDA YALPI HUDUDII MAHSULOT VA BANDLIK KO'RSATKICHLARI O'RTASIDAGI KORRELYATSION BOG'LIQLIK.....	118
Karimov Olimjon Akramovich	
ИННОВАЦИОННЫЕ МЕХАНИЗМЫ УПРАВЛЕНИЯ ЖИЛИЩНЫМ СТРОИТЕЛЬСТВОМ В Г. ТЕРМЕЗЕ В УСЛОВИЯХ РОСТА ИНВЕСТИЦИОННОЙ АКТИВНОСТИ	124
Токсонов Хуршид Эгамбердиевич	
VINOCHILIK SANOATI KORXONALARIDA BUXGALTERIYA HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	129
Botirov Lazizbek Botirovich	
MEHNATGA HAQ TO'LASHNING IQTISODIY MAZMUNI, TASNIFI VA HISOB OBYEKT LARI SIFATIDAGI XUSUSIYATLARI	134
Anvar Raximov Maxmarasulovich	
IQTISODIY ISLOHOTLAR JARAYONIDA TIJORAT BANKLARI RESURS BAZASI SAMARADORLIGINI OSHIRISH MASALALARI	139
Marpatov Shavkat Mavlonxonovich	
TO'QIMACHILIK SANOATIDA INVESTITSION LOYIHALAR UCHUN MOLIVALASHTIRISH MANBALARINI DIVERSIFIKATSİYALASHNING USTUVOR YO'NALISHLARI	145
Qurbonov Jasurbek Pozilovich	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	150
Ташмухамедова Карима Саматовна	
МЕТОДОЛОГИЧЕСКИЕ ОСНОВЫ ФОРМИРОВАНИЯ СИСТЕМЫ УПРАВЛЕНИЯ КОНКУРЕНТНЫМ ПОТЕНЦИАЛОМ ПРЕДПРИЯТИЙ СТРОИТЕЛЬНОЙ ОТРАСЛИ.....	156
Sultonmurod Qurbonov, Ahmadjon Ibadullaev, Elmira Teshabayeva, Umar Chorshanbiev	
ECONOMIC STRUCTURE AND DEVELOPMENT PRIORITIES FOR STRENGTHENING INTERREGIONAL ECONOMIC COOPERATION: EVIDENCE FROM NAMANGAN REGION	161
Sattarov R. A.	
MATERIALLARNING TARKIBI VA TUZILISHINING ULARNING XOSSALARIGA TA'SIRINI TAHLIL QILISH... ..	167
Tuxliyev Muslimbek Sherzod o'g'li	
REMOTE WORK AND EMPLOYEE ENGAGEMENT: INSIGHTS FROM TASHKENT IT FIRMS.....	171
Narmurodova Sitara Aktamovna	
OPTIMIZING CONVERGENT-DIVERGENT ROCKET NOZZLE GEOMETRY (30°/10°) TO ENHANCE THE ALTITUDE PERFORMANCE OF MODEL ROCKETS USING SOLID SUGAR PROPELLANTS.....	176
Berdiyev Usmon Tolib o'g'li	
TIRBAND HUDUDLARDA SODIR BO'LAYOTGAN YO'L-TRANSPORT HODISALARINING TAHLILI.....	181
Xolmatov Umid Sadirdinovich	
TRANSPORT TIZIMIDA HARAKAT XAVFSIZLIGIGA KOMPLEKS TA'SIR ETUVCHI OMILLARNI GIS-TSI ASOSIDA BAHOLASH VA KAMAYTIRISH (JIZZAX SHAHRI MISOLIDA)	186
Kamolov Otabek Quدراتovich	
DEVELOPMENT OF ELASTOMER COMPOSITIONS BASED ON LOCAL RAW MATERIALS FOR RAILWAY RAIL PADS AND EVALUATION OF THEIR DYNAMIC PROPERTIES.....	192
Ibadullaev Akhmadjan, Lesov Kuvandik, Samandarov Xushnodbek, Chorshanbiev Umar	
SHUDGORLANGAN YERLARNI EKISHGA TAYYORLASHDA QO'LLANILADIGAN MASHINA PLANKALI G'ALTAKMOLASINING PARAMETRLARINI ASOSLASH	198
Muqimova Davlatxon, Giyasidinov Abdumannob, Haydarov Murodjon	
HUMAN CAPITAL DEVELOPMENT AND ITS IMPACT ON THE BUSINESS ENVIRONMENT IN UZBEKISTAN: A LITERATURE REVIEW	203
Dilafroz Kuchkorova	



KLASTERLARDA ASOSIY FAOLIYAT DAROMADLARI HISOBINI TAKOMILLASHTIRISH	209
Shirov Javlonbek Akbarovich	
СОВЕРШЕНСТВОВАНИЕ МЕТОДОЛОГИИ ОЦЕНКИ ЭКОНОМИЧЕСКОЙ ЭФФЕКТИВНОСТИ	
ИНВЕСТИЦИОННЫХ ПРОЕКТОВ В АКЦИОНЕРНЫХ ОБЩЕСТВАХ НА ОСНОВЕ КРИТЕРИЕВ ESG..	215
Айтмуратова Улбике Жалгасовна	
KICHIK VA O'RTA BIZNES SUBYEKTLARI HAYOTIY AYLANISH BOSQICHLARINI ANIQLASH USULLARINI	
AUDITGA TASIRI: YOSHGA OID USUL	222
Muydinov Erkin Djamaldinovich	
HUDUDNING IJTIMOIIY-IQTISODIY RIVOJLANISHINI BOSHQARISHNING MINTAQAVIY XUSUSIYATLARI...	
.....	229
Raximov Jo'rabek Raximovich	
XALQARO MARKETING STRATEGIYALARINING NAZARIY ASOSLARI VA EKSPORT FAOLIYATIDAGI ROLI	
.....	236
Shoxida Ibadullayeva	
EKSPORT SAMARADORLIGINI OSHIRISH ORQALI MINTAQ RAQOBATBARDOSHLIGINI TA'MINLASH	
YO'LLARI.....	240
Matyoqubov Arslonbek G'ayrat o'g'li	
CHORRAHA SVETOFORLARINING AQLLI AVTOMATLASHTIRILGAN BOSHQARUV PARAMETRLARINI	
SUMO MODEL ASOSIDA TAKOMILLASHTIRISH.....	244
Bayozov Ravshan Rajabovich	
M-39 YO'LINING 989-1013 KMLARIDAGI TOG'LI HUDUDLARDA SODIR ETILGAN YTHLARNING	
TAHLILI ASOSIDA CHORA-TADBIRLAR ISHLAB CHIQISH SAMARADORLIGI.....	251
Shokirov Ozod G'aybullay o'g'li	
SHAHAR MAGISTRAL YO'LLARINING TUZILISHI VA TRANSPORT OQIMI	258
Xayrullo Raximovich Baynazarov	
ELEKTROMOBILLAR BATAREYALARINI TURLI IQLIM SHAROITLARIDA QIZDIRISH UCHUN	
SARFLANADIGAN ENERGIYA VA VAQT KO'RSATKICHLARINI OPTIMALLASHTIRISH	266
Qosimov Baxtiyor Axmatjonovich	
ELEKTROMOBILLARGA TEXNIK XIZMAT KO'RSATISH STANSIYALARI FAOLIYATINING BOSHQARUV	
MODEL.....	272
Xasanov Bunyodjon Ibragim o'g'li	
KICHIK BIZNES SUBYEKTLARINING INVESTITSION SALOHIYATINI BAHOLASHNING HUDUDIY	
XUSUSIYATLARI.....	279
Vaisov Dilshod, Madraximov Qahramon	
EKSPORT-LOGISTIKA INFRATUZILMASI SAMARADORLIGINI OSHIRISHNING XORIY DAVLATLARI	
TARJIBASI	285
Raimboyeva Mashhura Davronbek qizi	
TA'LIM JARAYONIDA SUN'IY INTELLEKT ASOSIDAGI ADAPTIV BAHOLASH TIZIMINI ISHLAB CHIQISH	
VA UNING SAMARADORLIGINI BAHOLASH.....	291
Madaminov Shoxruxbek Ma'rufjon o'g'li	
FERMENTLANGAN NO'XAT UNI VA BUG'DOY UNI ARALASHMASIDAN TAYYORLANGAN NONNING	
SIFATI VA OZIQAVIY QIYMATINI ASOSLASH.....	295
Kamolova Muxlisa, Barakayev Nusratilla	
QURILISH KORXONALARI UCHUN YASHIL STRATEGIK BOSHQARUV MODEL.....	302
G'ulomova Shaxlo Baxtiyor qizi	
ИССЛЕДОВАНИЕ ГИДРОГЕОЛОГИЧЕСКИХ УСЛОВИЙ СОЛЕВОГО ПЛАСТА И КАРСТА	
ТЮБЕГАТАНСКОГО МЕСТОРОЖДЕНИЯ	310
Холбаев Бахром, Курбанов Диярбек	
VALIKLI JINNING IKKI PICHQOLI TIZIMIDA TOLA AJRATISH JARAYONINING NAZARIY TAHLILI.....	314
Abdugapparova Sh.N., Yuldashev A.X.	



YO'L-TRANSPORT HODISALARI SODIR BO'LISHIDA HAYDOVCHINING PSIXOFIZIOLOGIK HOLATINING TA'SIRI.....	319
Ulkanov Sardorjon Sodiqjon o'g'li	
QISHLOQ MAHALLALARIDA MARKAZIY ISSIQLIK TIZIMLARINI VODOROD ENERGIYA GENERATORLARI ASOSIDA TASHKIL ETISHNING TEXNOLOGIK VA IQTISODIY ASOSLARI	323
Askarov Xasanjon, Jumaqulova Zulayho	
MUHIM AXBOROT INFRATUZILMASI OBYEKTLARINING RAQAMLI TRANSFORMATSIYASI SHAROITIDA KIBERXAVFSIZLIK BO'YICHA MUTAXASSISLARNI AMALIYOTGA YO'NALTIRILGAN TAYYORLASH	329
G'ulomov Sherzod Rajaboyevich	
BARBOTAJLI ABSORBER QURILMASINING GIDRAVLIK QARSHILIGINI TADQIQ ETISH	338
Xalilov Ismoiljon, Askarov Xasanjon	
MAXSUS IQTISODIY VA SANOAT ZONALARIDA KO'P TARMOQLI KORXONALAR FAOLIYATINI BOSHQARISHNING INSTITUTSIONAL VA TASHKILIY-IQTISODIY XUSUSIYATLARI	345
Xusanova Malohat Mingnorovna	
NEW ZEALAND'S EXPERIENCE IN TRANSITIONING TO INFLATION TARGETING.....	349
Duskobilov Umidjon Sharofiddinovich	
QURILISH MATERIALLARI SANOATI KORXONALARIDA ISHLAB CHIQRISH HAJMINI CHEKLAYOTGAN MUAMMOLAR.....	357
Toshpulatov Asronbek Mutalibovich	
РЕАЛИЗАЦИЯ ИНВЕСТИЦИОННОЙ ПОЛИТИКИ КАК ФАКТОР РАЗВИТИЯ «ЗЕЛЁНОЙ» ЭНЕРГЕТИКИ В РЕСПУБЛИКЕ УЗБЕКИСТАН.....	364
Матчанов Умирзак Сейтжанович	
MEHNAT BOZORI TRANSFORMATSIYASINING ZAMONAVIY SHAKLLARI: NAZARIY ASOSLAR VA GENDER JIHATLARI TAHLILI.....	371
Xasanova Shaxzoda Sarvar qizi	
GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA YANGI O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TA'LIM RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI	375
Masharipova Maksuda Beknazarovna	
MEHNAT MUHOFAZASIDA INSON OMILINING O'RNI VA AHAMIYATI	380
Ashirqulova Qurbonoy, Nurbek Mamatov	



GLOBALIZATSIYA SHAROITIDA YANGI O'ZBEKISTONDA IQTISODIY TA'LIM RIVOJLANISHINING TENDENSIYALARI VA ISTIQBOLLARI

Masharipova Maksuda Beknazarovna

Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti

Iqtisodiyot kafedrası o'qituvchisi

Iqtisodiyot fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD)

masaripovamaksuda91@gmail.com

Annotatsiya. Mazkur maqolada globallashuv sharoitida Yangi O'zbekiston strategiyasi doirasida iqtisodiy ta'limning rivojlanish tendensiyalari ilmiy-tahliliy nuqtai nazardan o'rganilgan. Xalqaro ta'lim tizimlari bilan qiyosiy tahlil asosida O'zbekistondagi iqtisodiy ta'lim islohotlari, raqamli transformatsiya omillari hamda innovatsion texnologiyalarning ta'lim jarayoniga ta'siri yoritilgan. Maqolada iqtisodiy ta'limni yangilashning ustuvor yo'nalishlari va ularni amalga oshirishga doir amaliy tavsiyalar bayon etilgan.

Kalit so'zlar: iqtisodiy ta'lim, globalizatsiya, Yangi O'zbekiston, raqamli transformatsiya, ta'lim islohoti, sun'iy intellekt, innovatsion texnologiyalar, inson kapitali.

Abstract. This article examines the development trends of economic education in the context of New Uzbekistan's strategic reforms and globalization from a scientific and analytical perspective. Based on a comparative analysis with international education systems, the article highlights the ongoing reforms in economic education in Uzbekistan, the impact of digital transformation, and the integration of innovative technologies into the educational process. Priority directions for modernizing economic education and practical recommendations for their implementation are presented.

Keywords: economic education, globalization, New Uzbekistan, digital transformation, educational reform, artificial intelligence, innovative technologies, human capital.

KIRISH

Hozirgi kunda jahon iqtisodiy tizimining jadal integratsiyalashuvi va globallashuv jarayonlarining kuchayishi milliy ta'lim tizimlariga yangicha talablar qo'ymoqda. Iqtisodiy ta'lim — raqobatbardosh inson kapitalini shakllantirishda asosiy omil sifatida tobora muhim ahamiyat kasb etmoqda. Globallashuv nafaqat iqtisodiy sohada, balki ta'lim tizimida ham o'ziga xos o'zgarishlarga turtki bo'lmoqda: an'anaviy o'quv dasturlari yangilanib, raqamli texnologiyalar va sun'iy intellekt imkoniyatlari bilim berish jarayoniga izchil kirib kelmoqda [1, 420-b.].

O'zbekiston Respublikasi 2017-yildan boshlab amalga oshirayotgan keng qamrovli islohotlar doirasida ta'lim sohasini tubdan yangilash yo'lini tutdi. Prezident Shavkat Mirziyoyev boshchiligida qabul qilingan strategik hujjatlar — Harakatlar strategiyasi (2017), Yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi (2022–2026) va "Ta'lim hamda fanni 2030-yilgacha rivojlantirish" konsepsiyasi iqtisodiy ta'limni modernizatsiya qilishning mustahkam huquqiy asosini yaratdi [2, 2-b.]. Bu islohotlar natijasida 2016-yilda atigi 9 foiz bo'lgan oliy ta'limga qamrovlilik darajasi 2024-yilga kelib 40 foizdan oshdi [3].

Tadqiqot maqsadi — globallashuv sharoitida O'zbekistonda iqtisodiy ta'limning hozirgi holati, rivojlanish tendensiyalari va istiqbolli yo'nalishlarini ilmiy-tahliliy jihatdan asoslab, amaliy tavsiyalar ishlab chiqishdan iborat. Ilmiy yangiligi shundan iboratki, maqolada O'zbekiston iqtisodiy ta'limi xalqaro qiyosiy tahlil asosida kompleks tarzda yoritilgan.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR SHARHI

Globalizatsiya va ta'lim tizimining nazariy asoslari

Globallashuv ilmiy adabiyotlarda milliy iqtisodiyotlarning tobora ochiq va o'zaro bog'liq tizimga aylanishi jarayoni sifatida tavsiflanadi [4, 335-b.]. Bu jarayon ta'lim tizimiga ham bevosita ta'sir ko'rsatib, o'quv dasturlari mazmuni, pedagogik metodlar va baholash tizimlarining xalqaro standartlarga yaqinlashishini taqozo etadi. Nobel mukofoti sovrindori J.Stiglitsning ta'kidlashicha, globallashuv muammosi uning qanday amalga oshirilayotganida bo'lib, barqaror va demokratik o'sishni ta'minlovchi siyosatlar milliy ta'lim tizimining asosini tashkil etishi lozim [5, 289-b.].

Iqtisodiy ta'limning nazariy asoslarini o'rganishda T.Shults va G.Bekkerning inson kapitali nazariyasi alohida ahamiyatga ega. Ushbu nazariyaga ko'ra, ta'limga sarflangan investitsiyalar mehnat unumdorligini oshirish va iqtisodiy o'sishni ta'minlashning eng samarali usuli hisoblanadi. Jahon banki tadqiqotlari esa iqtisodiy ta'limga yo'naltirilgan sarmoyalar milliy YalMning o'sishiga ijobiy hissa qo'shishini empirik jihatdan tasdiqlaydi [6, 112-b.]. M.Porterning "olmos" modeli ham milliy ta'lim tizimini mamlakat raqobatbardoshligining asosiy tarkibiy qismi sifatida belgilaydi [7, 1-b.].

Globallashuv sharoitida iqtisodiy ta'lim tizimida bir nechta ustuvor tendensiyalar kuzatilmoqda: birinchidan, o'quv dasturlarining xalqaro standartlar — Bologna jarayoni, OECD va UNESCO tavsiyalariga mos kelishini ta'minlash; ikkinchidan, amaliy ko'nikmalar va tadbirkorlik kompetensiyalarini shakllantirishga alohida e'tibor qaratish; uchinchidan, ta'lim-fan-ishlab chiqarish uchburchagini mustahkamlash; to'rtinchidan, raqamli texnologiyalar asosida ta'lim jarayonini transformatsiya qilish [8, 77-b.].

Yangi O'zbekistonda fan va ta'lim sohasidagi islohotlar tahlili

O'zbekistonda iqtisodiy ta'lim sohasidagi islohotlar tizimli xarakter kasb etib, bir qator muhim natijalarni berdi. 2024/2025 o'quv yiliga kelib oliy ta'lim muassasalarida o'qiyotgan talabalar soni 1 432 800 kishiga yetdi, bu 2015/2016 o'quv yiliga nisbatan 5,4 baravarga ko'pdir [9]. 2016-yilda mamlakatda 69 ta oliy ta'lim muassasasi faoliyat yuritgan bo'lsa, 2024-yilda bu ko'rsatkich sezilarli darajada o'sdi [10]. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti 26 ta mamlakatdan 1 391 xorijiy talabani o'qitib, xalqaro akademik markazga aylanib bormoqda [11].

O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni bilan tasdiqlangan ta'lim konsepsiyasi 2030-yilgacha yoshlarning oliy ta'limga qamrovlilik darajasini 50 foizga yetkazish maqsadini belgiladi [10]. 2023-yilda O'zbekiston YalMi 6 foizga o'sib, 1,07 kvadrillion so'm (90,8 mlrd dollarga teng) ni tashkil etdi [12]. Mamlakat iqtisodiyotining izchil o'sishi iqtisodiy kadrlar tayyorlash talabini yanada oshirmoqda.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Iqtisodiy ta'lim sohasidagi eng muhim sifat o'zgarishlaridan biri — chet el universitetlari filiallarining faoliyati kengayishi hisoblanadi. Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti London universiteti va London iqtisodiyot maktabi bilan qo'shma ikki diplomli dasturlarni yo'lga qo'ydi [11]. 2024-yilda Times Higher Education tomonidan O'zbekistonning 53 ta oliy ta'lim muassasasi "THE Impact Rankings"da o'rin egallab, ulardan 7 tasi dunyo bo'yicha top 1000 ga kirdi (1-jadval)[10].

1-jadval

O'zbekistonda oliy ta'limning rivojlanish dinamikasi (2016–2024-yillar)

Ko'rsatkich	2016-yil	2019-yil	2022-yil	2024-yil
Talabalar soni (ming kishi)	264,3	498,6	987,4	1 432,8
Oliy ta'limga qamrovlilik (%)	9	18	28	38–40
OTM soni (dona)	69	113	196	220+
Xorijiy OTM filiallari	8	15	28	42
Iqtisodiy yo'nalish talabalari ulushi (%)	22,4	24,1	26,8	28,3

Manba: O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi va Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.


Zamonaviy tendensiyalar va raqamli transformatsiya

Raqamli texnologiyalar va sun'iy intellektning ta'lim jarayoniga integratsiyasi bugungi kunda iqtisodiy ta'limning eng muhim transformatsion omillaridan biriga aylandi. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli qarori bilan «Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi» tasdiqlandi [13]. Ushbu hujjatda sun'iy intellektni ta'lim sohasiga joriy etish alohida yo'nalish sifatida belgilangan.



Raqamli texnologiyalar vazirligi “Bir million sun’iy intellekt foydalanuvchilari” dasturi doirasida aistudy.uz platformasini ishga tushirdi [14]. Mazkur platforma talabalar, davlat xodimlari va xususiy sektor mutaxassislariga sun’iy intellekt sohasida ko’nikmalarni egallash imkonini beradi. So’rovnoma natijalari talabalarning 72 foizi AI texnologiyalari o’qishni yengillashtiradi, deb hisoblashini, 68 foizi esa individual ta’limni qo’llab-quvvatlashda samarali ekanligini ta’kidlashini ko’rsatdi [15].

O’zbekiston oliy ta’lim tizimida raqamli transformatsiyaning asosiy yo’nalishlari: masofaviy ta’lim platformalarini kengaytirish, “katta ma’lumotlar” (Big Data) texnologiyalarini o’quv jarayonida qo’llash, elektron kutubxona va ma’lumotlar bazalarining ochiq foydalanishga taqdim etilishi hamda ta’lim sifatini monitoring qiluvchi raqamli tizimlarni joriy etishdan iborat [13]. 2022/2023 o’quv yilidan boshlab “Sun’iy intellekt” mutaxassisligi bo’yicha kadrlar tayyorlash oliy ta’limda rasmiy yo’nalishga aylandi (1-rasm)[16].



1-rasm. O’zbekistonda oliy ta’limga qamrovlik darajasining o’sish grafigi (2016–2024-yillar)

Manba: O’zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo’mitasi va Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligi ma’lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

TAHLIL VA NATIJALAR

Janubiy Koreya tajribasi iqtisodiy ta’limning modernizatsiyasida ayniqsa ibratlidir. 2023-yil yanvarida Janubiy Koreya Ta’lim vazirligi «Raqamli ta’lim islohoti» dasturini e’lon qildi [17]. Dastur 2023-yildan boshlab 300 dan ortiq pilot maktabda raqamli ta’limni joriy etdi, 2024-yildan boshlang’ich, 2025-yildan o’rta ta’lim maktablariga kengaytirish belgilandi. 2025-yilga kelib mamlakat barcha sinflarda AI kurslarini milliy o’quv dasturiga kiritishni maqsad qilgan [18]. Bunga 70 million dollardan ortiq mablag’ ajratildi [19].

Finlyandiya ta’lim tizimi ham noyob model sifatida ajralib turadi. Davlat Alni ta’limga markazlashtirilgan innovatsion tarzda joriy etib, amaliy va ko’p fanli yondashuvni qo’llab-quvvatlamoda [17]. Germaniyaning insonparvar va etik tamoyillarga asoslangan yondashuvida AI kompetensiyalari nafaqat informatika, balki iqtisodiyot va kasb-hunar ta’limi dasturlariga ham singdirilmoqda [20]. AQShning Arizona universiteti tajribasida esa AI chatbotlari 36 foizgacha darsdan tashqari maslahat vazifasini bajarishi aniqlangan (2-jadval) [15].

2-jadval

Iqtisodiy ta’limda xalqaro tajriba: asosiy ko’rsatkichlar qiyosi

Davlat	Oliy ta’limga qamrovlik (%)	Raqamli ta’lim dasturi	AI integratsiyasi darajasi
Janubiy Koreya	95,3	Raqamli ta’lim islohoti (2023)	Yuqori (barcha sinflarda AI kurslari, 2025)
AQSh	88,2	AI in Education Strategy (2023)	Yuqori (universitetlarda AI chatbotlar)



Germaniya	72,1	Digitalpakt Schule II (2024)	O'rta (etik AI yondashuvi)
Finlyandiya	94,7	AI in Learning (2022–2025)	O'rta-yuqori (amaliy integratsiya)
O'zbekiston	38–40	Sun'iy intellekt strategiyasi (2024–2030)	Boshlang'ich (joriy etish bosqichi)

Manba: OECD Digital Education Outlook 2023, Janubiy Koreya Ta'lim vazirligi, O'zbekiston Milliy statistika qo'mitasi ma'lumotlari asosida muallif tomonidan tuzilgan.

Yaponiya tajribasi alohida e'tiborga molik: mamlakat iqtisodiy ta'limda "Society 5.0" konsepsiyasini joriy etib, sun'iy intellekt, katta ma'lumotlar va IoT texnologiyalarini o'quv dasturlariga izchil singdirmoqda. Yaponiyaning iqtisodiyot kafedralarida tadbirkorlik, moliyaviy savodxonlik va raqamli iqtisodiyot fanlari majburiy modullar sifatida o'qitiladi. Bu tajriba O'zbekiston uchun ham amaliy dastur bo'lishi mumkin [6, 112-b.].

Muammolar va istiqbolli yo'nalishlar

O'zbekistonda iqtisodiy ta'limni rivojlantirishda bir qator dolzarb muammolar mavjud bo'lib, ularni hal etish strategik ahamiyat kasb etadi. Birinchi muammo — o'quv dasturlarining mehnat bozori talablariga moslashning zarurati. Osiyo taraqqiyot banki hisobotida ta'kidlanishicha, mamlakat iqtisodiyotini diversifikatsiya qilish uchun ilm-fan, texnologiya, muhandislik va matematika (STEM) bo'yicha ko'nikmalarga ega malakali mutaxassislar talab keskin o'smoqda [21]. Shu bilan birga, xalqaro baholash dasturlari bo'yicha o'rta ta'lim sifati hamon tashvish uyg'otmoqda [21].

Ikkinchi muammo — ta'limning hududiy nomutanosibligi. Poytaxt va yirik shaharlar bilan qiyoslaganda viloyatlar va tumanlarning iqtisodiy ta'lim sifati va infratuzilmasi sezilarli farq qiladi. Uchinchi muammo — professor-o'qituvchi kadrlari salohiyatining raqamli kompetensiyalar bo'yicha yetarli emasligi. UNESCO tomonidan ishlab chiqilgan AI kompetensiyalari doirasi bo'yicha o'qituvchilarni qayta tayyorlash tizimini shakllantirish zarur [20]. To'rtinchi muammo — iqtisodiy ta'limda ilmiy-tadqiqot ishlarining passivligidir.

Toshkent davlat iqtisodiyot universitetining 2025–2030-yillar strategiyasida "6i Modeli" — Xalqarolashtirish, Fanlararo yondashuv, Tarmoqlararo aloqadorlik, Innovatsiya, O'zaro hamkorlik va Inklyuzivlik tamoyillari asosida universitetni xalqaro akademik markazga aylantirish maqsadi belgilangan [11]. Bu yo'nalish boshqa iqtisodiy ta'lim muassasalari uchun ham ibrat bo'lishi mumkin.

XULOSA VA TAKLIFLAR

Olib borilgan tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, globallashuv sharoitida Yangi O'zbekistondagi iqtisodiy ta'lim tizimi muhim miqdoriy o'sishga erishdi: talabalar soni 5,4 baravarga, oliy ta'limga qamrovlilik esa 9 foizdan 40 foizga yaqinlashdi. Biroq sifat ko'rsatkichlari bo'yicha Janubiy Koreya (95,3%), Finlyandiya (94,7%) kabi mamlakatlardan ma'lum darajada farq qolmoqda. 2024-yilgacha davlat YaIM darajasida barqaror 6 foizlik o'sishni ta'minlashi iqtisodiy mutaxassislarga bo'lgan talabni yanada oshirdi [12].

Tadqiqot natijalariga asoslanib quyidagi amaliy tavsiyalar taklif etiladi: birinchidan, o'quv dasturlarini "O'zbekiston yangi kasblar atlas" platformasi ma'lumotlari asosida mehnat bozori talablariga manzilli moslashtirish [22]; ikkinchidan, AQSh, Janubiy Koreya va Finlyandiya tajribasidan foydalanib, aistudy.uz platformasi va boshqa raqamli resurslarni iqtisodiy ta'limga chuqur integratsiya qilish [13; 18]; uchinchidan, ta'lim muassasalarining Scopus, Web of Science kabi xalqaro ilmiy bazalariga qo'shilishi va qo'shma dasturlarni rag'batlantirish [11]; to'rtinchidan, iqtisodiy ta'lim muassasalari va xususiy sektor o'rtasida kadrlar tayyorlash shartnomalarini kengaytirish [7, 1-b.]; beshinchidan, viloyat iqtisodiyot institutlari va filiallarini zamonaviy infratuzilma va kadrlar bilan ta'minlash orqali hududiy nomutanosiblikni kamaytirish [8, 79-b.].

Xulosa qilib aytganda, O'zbekistonda iqtisodiy ta'limning globallashuv sharoitidagi istiqboli yorqin: davlat siyosiy irodasi, demografik salohiyat va raqamli transformatsiya tendensiyalari birlashib, 2030-yilga kelib iqtisodiy ta'limning sifat jihatdan yangi bosqichga chiqishiga zamin hozirlaydi. Biroq bu yo'lda iqtisodiy ta'limning xalqaro standartlar bilan uyg'unligi, raqamli kompetensiyalar va ilmiy-tadqiqot madaniyatining rivojlanishi strategik ustuvorlik sifatida qolishi lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Xazirova M.R., Xoldarova E.T., Nishonova N.A., Abdullayev D.N. Globallashuvning Yangi O'zbekistonda fan va ta'limning rivojiga ta'siri // *Ekonomika i sotsium*. – 2024. – №3(118)-2. – B. 419–421.
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2017-yil 7-fevraldagi PF-4947-sonli Harakatlar strategiyasi to'g'risidagi Farmoni. – <https://www.lex.uz/docs/-3107036?otherlang=1>
3. Uzbekistan has set a goal to increase the level of youth enrollment in higher education to 50%. – *uzconsulate-aktau*.



kz [2024].

4. Zuxriddinova S.D. Globallashuv sharoitida iqtisodiy ta'limni rivojlantirishning zamonaviy tendensiyalari // STARS International University ilmiy to'plami. – 2022. – B. 335–338.

5. Stiglitz J.Yu. Globalizatsiya: trevozhnye tendentsii. Per. s angl. – M., 2003. – 289 b.

6. World Bank. World Development Report 2019: The Changing Nature of Work. – Washington, DC: World Bank, 2019. – 173 b.

7. Zokirov D.B. Globalizatsiya sharoitida milliy iqtisodiyotning raqobatbardoshligi // Universal Journal of Academic and Multidisciplinary Research. – 2025. – Vol. 3, Issue 31. – B. 62–64.

8. Erkinova M.R., Abduraxmonova D.A., Komilova X.F. XX asrda jahonda ta'lim tizimidagi global tendensiyalar // Pedagoglar.org to'plami. – 2024. – 30-to'plam, 3-qism. – B. 77–83.

9. O'zbekiston Respublikasi Milliy statistika qo'mitasi. Uzbekistan sees 5-fold growth in university enrollment since 2015. – kun.uz [2025].

10. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 24-maydagi PF-81-sonli Farmoni. Oliy ta'lim tashkilotlariga qabul tizimini takomillashtirish. – <https://lex.uz/uz/docs/-6937332>

11. Tashkent State University of Economics. Official Academic Profile. – topuniversities.com [2024].

12. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Statistika agentligi. YaIM 2023-yilda 1,07 kvadrillion so'mni tashkil etdi. – gazeta.uz [2024].

13. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2024-yil 14-oktabrdagi PQ-358-sonli Qarori. Sun'iy intellekt texnologiyalarini 2030-yilgacha rivojlantirish strategiyasi. – <https://lex.uz/docs/-7158604>

14. Raqamli texnologiyalar vazirligi. "Bir million sun'iy intellekt foydalanuvchilari" dasturi. aistudy.uz platformasi. – gov.uz [2025].

15. ResearchGate. Sun'iy intellekt texnologiyalarining ta'limga integratsiyasi va uning imkoniyatlari. – researchgate.net [2025].

16. Muhammad al-Xorazmiy nomidagi TATU. "Sun'iy intellekt" kafedras tarixi. – tuit.uz [2024].

17. Center on Reinventing Public Education. Shockwaves and Innovations: How Nations Worldwide Are Approaching AI in Education. – crpe.org [2023].

18. AACRAO. Digital-driven Education Reform Plan Announced in South Korea. – aacrao.org [2023].

19. World Education Blog. AI textbooks to arrive in Korea. – world-education-blog.org [2025].

20. UNESCO UNEVOC. European insights: AI integration in TVET. – atlas.unevoc.unesco.org [2025].

21. Osiyo taraqqiyot banki. O'zbekiston iqtisodiyoti: 2023–2024-yillar istiqboli. – spot.uz [2023].

muhandislik **& iqtisodiyot**

ijtimoiy-iqtisodiy, innovatsion texnik,
fan va ta'limga oid ilmiy-amaliy jurnal

Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Zokir Alibekov

Sahifalovchi va dizayner: Abdurahmon Qurbonov

2026. № 7

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelamasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

"Muhandislik va iqtisodiyot" jurnali 26.06.2023-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№S-5669245 reyestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №095310.

**Manzilimiz: Toshkent shahri Yunusobod
tumani 15-mavze 19-uy**





+998 93 718 40 07



<https://muhandislik-iqtisodiyot.uz/index.php/journal>



t.me/yait_2100